

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi faoliyatidan

TA'LIMU TARBIYA UYG'UNLIGIDA HIKMAT BOR

2004 — 2009-yillarga mo'ljallangan maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi, o'qituvchilarga haq to'lashning yangi — takomil-lashtirilgan tizimi asosini tashkil qiluvchi tamoyillar biz, o'qituvchilarni ruhlantirmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'l-lab, tashabbuskorlik bilan ishlash-ga o'rgatmoqda.

Ayni paytda biz xalq tarbiya-shunosligi tajribalaridan o'z o'mida foydalanib borishimiz joiz.

Shu o'rinda bir voqea yodimga tushdi.

Xonadonda hamma jamuljam. Davra to'rida sakson yillik tavalludi nishonlanayotgan bobo o'tiribdi. O'g'illar, qizlar, kelinlarni kuyov-lar, hatto nabiralarni ham birma-bir boboga sihat-salomatlik tiladilar. Shunda bobo boshlang'ich sinfdagi o'qiyotgan evarasini yoniga chaqirdi.

— Bo'talog'im, sening ham menga biror tilaging bormi? — deb so'radi.

— Ha, bor...

— Unda qani ayt-chi?

Bolakay buvasining quloq-lariga og'zini yaqinlashtirib, nimadir deb pichirladi.

— Rahmat, bolam. Endi shu gaplaringni ko'pchilik oldida baland tovushda aytgin! Qani, boshla.

Kichikintoy biroz uyalib turdi. So'ng o'rtaga chiqib, dona-dona qilib dedi:

— Hamisha bobojonim bo'lib yuring!

O'tirganlarni chapak chalib yuborishdi. Hayajondan bolaning ko'zlari charaqlab ketdi. Axir, u shu vaqtda yaqinlari oldida ko'nglidagini baralla aytishga odatlanmagandi. Bola yaqinlarini bir-biriga bog'lab turgan rishtalar bir umrlik ekanini chuqur anglab yetsagina, o'zi ham ularga bog'lanadi, shu tariqa oilaviy burch va vazifalarni ado eta boradi. Bu esa bolaning kelajak hayoti uchun ham juda zarurdir.

Darvoqe, pedagogik hayotim-ning mazmunini belgilagan umid-larim — boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan milliy qadriyatlar xususida suhbatlasharkanman, ularga imkon qadar jonli misollar bilan buni chuqurroq tushuntirishga harakat qilaman. Masalan, bola o'rtog'i bilan janjallashib qol-sa, darrov uzr so'rashdan tortin-masin. Ko'cha-ko'yda kattalarga yordam berishga, kichiklarga g'amxo'r bo'lishga odatlansin. Aniqrog'i, milliy qadriyatlarimiz zahirini go'zal fe'l-atvor, ajoyib fazilatlar tashkil etishini bilib olsin.

Esimda, dadam biz farzand-larini sizlab gapiradigan odamoxun kishi edilar. Agar qay birimiz xato ish qilib qo'ysak yo kimnidir ranjitsak, koyish o'miga: "Ha, yangi hunaringiz qulluq, bo'lsin", derdilar, shu gaplardan keyin xijolat bo'lib, darrov uzr so'rardik. Onam ham qo'ni-qo'shninikiga mehmon kelsa, darrov osh damlab olib chiqardilar. Ayniqsa, ulardan biror narsa qarz olsak, darrov qaytarishga shoshiltirardilar. Qarz — omonat, omonatni esa darhol egasiga qaytarish lozim, derdilar.

Demak, aytadigan har yaxshi-yomon so'zimiz, hatto birovlardan olgan narsalari-mizning ham o'z yuki, javobi bor ekan! Biz ko'chada kattalar oldidan kesib o'tmaslikni, ular-ning gapini jimgina tinglashni, mehmonni izzatlashni, xullas, ko'pgina milliy qadriyatlarimizni oilada — ota-onalarimizdan eshitib, o'rgandik.

Istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz yana asliga qaytdi. Unutilgan odatlarimiz tiklandi. Endilikda yosh avlod tarbiyasida pedagoglar mas'uliyati yanada kuchaytirilib, ularga zamonaviy bilimlar qatorida milliy qadriyat va tushunchalarimizni ham o'rgatib borish yo'lga qo'yildi. Boshlang'ich sinflar bilan ishlash jarayonida men ham shu narsaga amal qilaman. Va bu borada bir qancha testlar, max-sus savol-javoblar ishlab chiqdim. Vaqti kelganda, ota-onalar bilan bu xususda davomli ishlar olib boraman. Maqsad — har bir bola ruhiyatida go'zal insoniy fe'l-atvorni shakllantirish, ta'limu tarbiyani uyg'unlikda olib borish, xalqimiz xizmatiga hamisha kamarbasta, barkamol shaxslarni voyaga yetkazishdan iborat.

Zero, O'zbekiston Respubli-kasi Prezidentining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2005-yil 25-noyabrdagi Qarori, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari hamda me'yoriy hujjatlari o'qituvchi mehnati qadriini ham, uning zimmasidagi mas'uliyatni ham oshirdi. Biz, o'qituvchilar bu yuksak ishonchni, albatta, oqlay-miz.

Mamalakat YO'LDOSHEVA, Toshkent shahar,
Hamza tumanidagi 69-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

